

SHARQ ALLOMALARI ASARLARIDA TOLERANTLIK QARASHLARNING PSIXOLOGIK TAHLILI

Ummatova Fozila¹

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

KEYWORDS

Tolerantlik, sharq allomalari,
psixologik tahlil,
madaniyatlararo muloqot,
dinlararo hurmat, zamonaviy
jamiyat.

ABSTRACT

Ushbu maqola Sharq allomalarining asarlarida tolerantlikka oid qarashlarining psixologik tahliliga bag'ishlangan. Maqolada, turli madaniyat va dinlarga mansub insonlar o'rtaida o'zaro hurmat va toqatli munosabatlarni qanday qilib rivojlantirish mumkinligi haqida fikrlar o'rganiladi. Sharq faylasuflari va mutafakkirlarining asarlarida keltirilgan misollar orqali tolerantlik tushunchasi chuqur tahlil qilinadi va zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati ko'rsatib beriladi. Maqola, shuningdek, turli dinlar va madaniyatlararo muloqotni mustahkamlashda tolerantlikning rolini ta'kidlaydi.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: [10.5281/zenodo.15513649](https://doi.org/10.5281/zenodo.15513649)

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Kirish: Tolerantlik yoki bag'rikenglik tushunchasi O'zbek xalqining madaniyati va tarixida chuqur ildizga ega bo'lib, uning shakllanishi qadimiy davrlardan boshlangan. Bu fazilatni tushunish uchun tarixiy kontekstga e'tibor qaratish zarur. Masalan, Amir Temur Turon xalqining chuqur tarixiy ildizlari haqida gapirgan bo'lsa, XX asrning buyuk adibi G'afur G'ulom O'zbek xalqining madaniy merosi Misr ehromlaridan ham qadimiy ekanligini ta'kidlagan.

Tarixiy nuqtai nazardan qaraganda, insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida mehnat, ma'nnaviyat va axloqiy qadriyatlar muhim rol o'ynagan. O'zbek xalqi ham uz tarixida ko'plab madaniy, falsafiy va axloqiy bosqichlardan o'tib, o'ziga xos fazilatlarni shakllantirgan. Xalqimizning ezgulik, odamiylik, muruvvat kabi yuqori qadriyatlari uning madaniy qudratini ifodalovchi muhim omillar hisoblanadi.

Asosiy qism: Tarixiy merosimizdan ilhom olgan bag'rikenglik, muruvvat va saxovat kabi fazilatlar bugungi jamiyatimizda yangicha talqin va ahamiyat kasb etmoqda. Ma'nnaviy uyg'onish jarayoni insoniyatning ruhiy taraqqiyoti va ijtimoiy hayotda o'zini anglash darajasini ko'rsatadi. Bu jarayon yaxshilik bilan yomonlik, ezgulik bilan jaholat,adolat bilan

¹ Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti 4-kurs talabasi

zulm, bag'rikenglik bilan xudbinlik, ogohlik bilan loqaydlik o'rtasidagi farqlarni anglashga asoslanadi.

O'zbekiston kelajakda buyuk jamiyatga aylanish yo'lida milliy, diniy va umuminsoniy qadriyatlar negizida rivojlantirishga. Tolerantlik bu qadriyatlar tizimida muhim o'rinni egallab, insonlarning harakati, fikrashi va o'zaro munosabatlarida namoyon bo'ladi. Bu hodisa nafaqat individual, balki ijtimoiy darajada ham insonparvarlik, hamdardlik va birdamlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Jamiyatimizda har bir shaxs boshqalarga nisbatan hamdardlik, rahbarlik va yordam ko'rsatish zarurligini anglash orqali insoniy fazilatlarni amalga oshirmoqda. Bu munosabatlar vijdon,adolat va haqiqat asosida shakllanib, odamlar o'rtasida tinchlik, mehr va halollik kabi ulug'vor qadriyatlarni mustahkamlaydi.

Kattalar o'rtasidagi bunday go'zal fazilatlar yoshlarimizga ibrat maktabi, hayot yo'lida yo'lchi yulduz bo'lmoqda. Bu fazilatlar orasida bag'rikenglik alohida o'rinni tutmoqda. Chunki inson ushbu erkin va ozod jamiyatda yashar ekan, u hamma xaqxuquqqaga ega teng, ozod, fikr, faoliyat, xulq-odob, yashash, ijod qilish, dam olish, sog'ligini muhofaza qilish, iqtidor, salohiyatini namoyon qilish imkoniyatiga ega jamiyat fuqarosidir. Biror fuqaroning erki, tengligi, jamiyatdagi mavqeい poymol bo'lishiga qomusimiz yo'l qo'ymaydi. Shu bilan birga har bir yurt fuqarosi jamiyat a'zosi sifatida mavjud hayotiy imkoniyatlardan bahramand bo'lish xuquqiga ega bo'lmoqda. Ammo hayotda insonlar har xil jismoniy, moddiy, ijtimoiy, ma'naviy extiyoj va manfaatlarini to'la qonli qondirish holatidan maxrum bo'lishi mumkin. Bular qatoriga nogiron, sihatligi va ruhiy kasaliligi tufayli normal hayot baxtidan mahrum, moddiy jihatdan muxtoj, yolg'izligi tufayli qarovchisi yo'q, yordamga intiq yurtdoshlarimiz borligi sir emas. Xalqimiz milliy xususiyatlariga xos bo'lgan boqiy fazilatlardan bag'rikenglik, muruvvat, himmat, saxovatpeshalik, daxldorlik, olivjanoblik, odamiylik, mexr-oqibat, g'amxo'rlikni aks ettiruvchi axloqiy qadriyatlar keng quloch yozib, ko'ngil, qalbi ma'naviy kemtik insonlarga baholi qudrat yordam qo'lini cho'zib, moddiy manfaat etkazadiganlarni har burchakda uchratish mumkin. Buning yorqin dalili yurtimizda mustaqillik sharofati bilan o'lmas, olivjanob qadriyatga aylangan-har bir yilning inson manfaati va maqsadidan davlat ustuvor siyosati sifatida amaliyotda joriy etilayotgan maqsadli vazifalarni ado etishga yo'naltirishi dunyodagi biror mamlakatda mavjud emas. Bu yillarning maqsadi "Inson manfaatiga xizmat qilish" dan iboratdir.

Insoniyatning tarixiy taraqqiyotida davlatlararo va xalqlararo munosabatlarga katta ahamiyat berilgan. O'zaro muloqotni rivojlantirish maqsadida elchilar, savdogarlar va sayyoohlар safarga chiqishdan oldin, boradigan joylarining tilini, dinini, madaniyatini va tarixini chuqur o'rganishgan. O'rta Osiyo zaminida yetishib chiqqan ko'plab allomalar, jumladan Muhammad Muso al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Nasr Farobi, Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sina kabi mutafakkirlar, o'z asarlarida ellararo va xalqlararo tinchlik hamda insonparvarlik g'oyalarini ilgari surganlar.

Masalan, Abu Nasr Farobiyning "Fozil odamlar shahri" asarida ideal jamiyat qurilishi, Abu Rayhon Beruniyning "Mineralogiya", "Geodeziya", "Hindiston" va "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarlari, shuningdek Abu Ali ibn Sinaning "Ahloq fani" va "Oila xo'jaligi"

kitoblarida ilm va ma'rifatning shaxs kamolotida o'ynaydigan rolari yoritilgan. Bu asarlarda ta'lim va tarbiya, shuningdek tolerantlik va bag'rikenglikning muhimligi ta'kidlanadi.

Abu Rayhon Beruniyning ta'kidlashicha, tolerantlik ijtimoiy munosabatlar, insonlar hayot tarzi, moddiy ehtiyojlari, qiziqishlari, manfaatlari va maqsadlari bilan chambarchas bog'liq. Uning fikricha, hamkorlik va odamlar o'rtasidagi integratsiya, shuningdek tashqi tahdidlarga qarshi birgalikda kurashish ehtiyoji tolerantlik g'oyalarining shakllanishiga yordam bergan. Beruniy, shuningdek, sabr-toqat va bag'rikenglikning xalqlarning barqarorligini ta'minlashdagi tarixiy rolini alohida ta'kidlaydi.

Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy, Xorazmning qadimiy poytaxti Kot shahrida 973 yilda dunyoga kelgan. Uning "Beruniy" nisbasi "shahar tashqarisida yashovchi kishi" ma'nosini anglatadi va bu atama dastlab Mavarounnahrlik alloma Abdulkarim as Samoniy tomonidan 1165 yilda vafot etganida "Kitob al ansob" ("Nasabnama") asarida qo'llangan.

Beruniy o'zining "Osor al-boqiya an al-qurun al-xoliya" ("Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar") asarini 1000 yilda yakunlagan bo'lib, bu asar unga keng shuhrat keltirgan va uni fanning turli sohalarida qiziqishlari bor buyuk olim sifatida tanitgan. Ushbu asarida Beruniy qadimgi yunonlar, eroniylar, sug'dlar, xorazmlik xarronlar (yulduzga topinuvchilar), koptlar, xrustianlar, yahudiylar va islomgacha bo'lgan arablar kabi turli xalqlarning madaniyatlari va dinlarini tahlil qiladi.

Beruniy, shuningdek, o'sha davrda juda kam sonli tarafdarlarga ega bo'lgan yoki yo'q bo'lib ketgan dinlar va mazhablar, xususan "soxta payg'ambarlar" haqida ham yozgan. Asarda bu xalqlarning kalendarlari, bayramlari, xotira kunlari va muhim metrologik hodisalar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

O'zbek madaniyatida sabr-toqat muhim fazilat hisoblanadi. Sabr, kutilmagan qiyinchiliklar yoki muammolarga duch kelganda, ularni hal qilish uchun zarur bo'lgan chidamni anglatadi. O'zbek mutafakkirlari odamlar o'rtasidagi munosabatlar va qo'shnilik aloqalarida sabr-toqatli bo'lishni targ'ib qilganlar. Sabrli insonlar hayotning turli sinovlariga bardosh berishadi va ko'pincha bu sabr ularni oxir-oqibat baxt va shodlikka olib keladi.

Abu Nasr Forobiyning qarashlariga ko'ra, insonlararo munosabatlar tabiiy yoki ihtiyoriy bog'lanishlar orqali emas, balki o'zaro manfaatlар ziddiyati tufayli kelib chiqadigan majburiy birliklar natijasida shakllanadi. Uning fikricha, ko'pincha odamlar o'z manfaatlari yo'lida boshqalarning huquqlarini poymol qilishadi va faqat tashqi kuchlar ta'sirida qisman murosaga kelishadi. Agar bu kuchlar yo'qolsa, kelishuvlar ham bekor bo'lib, o'zaro begonalashuv va tarqalishlar yuz beradi. Forobiy bu kabi noto'g'ri tasavvurlarni tanqid qilib, insoniy munosabatlarning asosiy maqsadi ihtiyoriy hamkorlik va o'zaro tushunishga asoslanishi kerakligini ta'kidlaydi.

Forobiy shuningdek, odamlar o'rtasidagi bog'lanishlar ularning xulq-atvori, tabiat, fe'li va tilining umumiyligi kabi omillarga bog'liq ekanligini aytadi. U bu orqali insonlarning bir-birlariga nisbatan mehr-oqibatli va sabr-toqatli munosabatda bo'lishining zarurligini urg'ulaydi.

O'zbek xalqi tomonidan "Sabrning tagi – sariq oltin" degan maqol ham sabr-toqatning

173

qiymatini ifodalaydi. Sabr-toqat, bardoshlik va vazminlik kabi fazilatlar insonlarni turli sinovlar va qiyinchiliklardan omon olib o'tadi. Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarida sabrning foydali jihatlari ta'riflanadi: Sabr achchiq bo'lsa-da, foyda keltiradi; qattiq bo'lsa-da, zarar va zahmatlarni daf etadi; sabr bandlarni ozod etuvchi kalit, maqsadga eltuvchi yo'ldosh va istakka yetkazuvchi ulfatdir. Sabr, shuningdek, sekin harakat qiluvchi ulov va og'ir qadam tashlaydigan tuy kabi, maqsadga eltuvchi vositadir. Sabr, shifobaxsh dori kabi, dastlab og'riq beruvchi bo'lsa-da, oxir-oqibatda sog'likka olib keladi.

XXI asr boshlarida O'zbekiston o'zining tarixiy va madaniy merosi bilan dunyoning rivojlangan davlatlari qatorida munosib o'rinn egallashga intildi. Mamlakatimizning jahon tamaddunidagi hissasi, avvalo, o'tmishdagি ulug' ajdodlarimizning fan va madaniyat sohalarida qoldirgan beba ho meroslarida namoyon bo'ladi. Ular orasida Zahiriddin Muhammad Bobur kabi tarixiy shaxslar alohida o'rinn tutadi. Bobur, temuriylar sulolasining vakili sifatida, o'z davrida mazkur sulolani yangi cho'qqilarga olib chiqqan va boburiylar davlatining asoschisi sifatida tarix sahnasida muhim rol o'ynagan. Boburiylar sulolasi nafaqat O'zbekiston, balki butun dunyo tarixida keng o'rganilgan va hozirgacha o'rganilmokda.

Javaharlal Neru ta'kidlaganidek, Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistonga kelib, ushbu mamlakatning madaniy hayotida katta o'zgarishlar yasagan. Uning Hindiston tarixi va madaniyatidagi ta'siri, shubhasiz, beqiyosdir. Bobur hind madaniyatini yangilagan, me'morchilik, san'at va adabiyotni boyitgan. Bobur faqatgina Hindistonni egallagan istilochi emas, balki u yerda barqaror va totuv jamiyat qurishga intilgan davlat arbobi sifatida e'tirof etiladi.

Boburning Hindistonda amalga oshirgan ishlari, ayniqsa millatlararo hamkorlik va diniy bag'rikenglik sohalarida yuqori baholanadi. U turli irq, millat va din vakillarini birlashtirgan, ular orasida o'zaro hurmat va totuvlik muhitini yaratgan. Boburiylar sulolasi Hindistonda ko'p millatli va turli diniy e'tiqodli aholi orasida uzoq yillar davomida hurmat qozongan va sevilgan. Zahiriddin Muhammad Bobur va uning avlodlari Hindiston xalqiga nisbatan yuksak g'amxo'rlik va hayrixohlik ko'rsatganlar.

Zahiriddin Muhammad Boburning millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik sohalaridagi sa'y-harakatlari, milliy g'oyamizning ushbu asosiy tamoyillarini amalda qo'llashda qo'llanma bo'lib xizmat qiladi. Uning faoliyati, shuningdek, o'zbek va jahon madaniyatining boyitilishiga hissa qo'shgan va uning ilmiy asoslanganligi hamda amaliy ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Markaziy Osiyo hududini egallagan arablar, o'z davrlariga nisbatan yuqori darajada rivojlangan madaniy hayot, ilm-fan va hunarmandchilikka duch kelishgan. G'arb dunyosidagi olimlar Sharqning boy ilmiy va madaniy merosiga katta qiziqish bilan yondashganlar. XVI-XVII asrlarga kelib, bu qiziqish o'zining cho'qqisiga chiqqan bo'lib, bu jarayon Buyuk geografik kashfiyotlar va diniy reformatsiyalar bilan chambarchas bog'liq edi.

Ispaniyada arablar tomonidan sakkiz asr davom etgan hukmronlik davrida Sharq madaniyati va ilmiy tafakkurining rivojlanishi, xalifalikni tashkil etgan boshqa xalqlar, xususan Movarounnahr va Eron madaniyatining arablar tomonidan o'zlashtirilishi va Ispaniyada yanada takomillashtirilishi G'arb mamlakatlari, xususan Ispaniya va uning

chegaradosh davlatlarining madaniy shakllanishi va rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

N.I.Konradning "G'arb va Sharq" asarida ta'kidlanishicha, IX-X asrlarda Markaziy Osiyo musulmon dunyosi juda yuqori darajadagi ilm-fan, falsafa va ma'rifatga ega bo'lgan. Bu davrda yashagan al-Farobi, ibn Sino (Avitsena), al-Xorazmiy va al-Beruniy kabi olimlar qadimgi davr falsafa va ilmiy merosini o'zlashtirib, o'sha davr uchun yangi ilmiy va falsafiy tafakkur yo'nalishlarini yaratdilar. Ular o'zlarining tarixiy taqdirlarini boy qadimiy sivilizatsiyalar manbalariga suyanib, umuminsoniy madaniy merosga katta hissa qo'shdilar.

Markaziy Osiyo qadim zamonlardan umuminsoniyat sivilizatsiyalarining chorrahasi bo'lgan va o'zining geografik va madaniy o'rni bilan jahon tarixida muhim rol o'ynagan. Bu hudud, shuningdek, global madaniy almashinuvlarning markazi sifatida ko'plab ilmiy va madaniy yangiliklarni dunyo madaniyatiga taqdim etgan.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, Sharq allomalarining asarlarida tolerantlik haqidagi qarashlarning psixologik tahlili ko'p jihatdan ularning falsafiy va etik kontekstiga bog'liq. Tolerantlik, ya'ni boshqalarning fikr va e'tiqodlariga hurmat ruhi Sharq mafkurasida keng tarqalgan bo'lib, bu xilvat va umuminsoniy qadriyatlarni qadrlash bilan bog'liqdir. Bu allomalar asarlari, ayniqsa, o'z davrlarida va keyinchalikgi avlodlar uchun ma'naviyat, falsafa va ilm-fan rivojiga katta hissa qo'shgan. Ular turli madaniy va diniy guruhlarni birlashtirishda tolerantlik va o'zaro tushunishning rolini ta'kidlaganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Асмолов А. Г. Толерантность от утопии к реальности // На пути к толерантному сознанию. М., 2000, С. 4-10.
2. Бардиер, Галина Леонидовна. Социальная психология толерантности: автореферат дис. ... д-ра психол. наук: 19.00.05. – СПб.: СПбГУ, 2007. – 46 с.
3. Бурдина, Г.Ю. Формирование основ толерантности у дошкольников на традициях этноэтикета в контексте нового образовательного стандарта (к постановке проблемы) [Электронный ресурс] / Г.Ю. Бурдина // Интернетжурнал «Науковедение». – 2014. – № 2.
4. Головатая Л.В. Толерантность как проблема философии образования: Авто реф.дис. ...канд.философ.наук. Ставрополь, 2006. 24 с.
5. Горбунова, О.Г. Воспитание основ толерантности у дошкольников (из опыта работы детского сада) [Электронный ресурс] / О.Г. Горбунова // Дошколёнок.ру: сайт для воспитателей детских садов.
6. Иванова, Н.М. Воспитание толерантности у детей старшего дошкольного возраста [Электронный ресурс]: автореф. дис. ... канд. пед. наук / Н.М. Иванова. – Елец. – 2002. – 24 с.
7. Иванова, Н.М. Воспитание толерантности у детей старшего дошкольного возраста [Электронный ресурс]: автореф. дис. ... канд. пед. наук / Н.М. Иванова. – Елец. – 2002. – 24 с.
8. Ильинская, Е.А. Формирование толерантности у детей старшего дошкольного возраста средствами социально-культурной деятельности: автореф. дис. ... канд. пед. наук / Е.А. Ильинская. – СПб., 2009. – 24 с.

9. Ильинская, Е.А. Формирование толерантности у детей старшего дошкольного возраста средствами социально-культурной деятельности: автореф. дис. ... канд. пед. наук / Е.А. Ильинская. – СПб., 2009. – 24 с.
10. Подивилова, О.Н. Воспитание толерантности дошкольника по программе «Детский сад-2100» [Текст] / О.Н. Подивилова // Начальная школа плюс ДО и После. – 2008. – № 12. – С. 38–43.
11. Подивилова, О.Н. Воспитание толерантности дошкольника по программе «Детский сад-2100» [Текст] / О.Н. Подивилова // Начальная школа плюс ДО и После. – 2008. – № 12. – С. 38–43.
12. Профессиональный стандарт «Педагог (педагогическая деятельность в дошкольном, начальном общем, основном общем, среднем общем образовании) (воспитатель, учитель)» [Электронный ресурс] : утв. приказом Министерства труда и социальной защиты Российской Федерации № 544н от 18.10.2013 г.
13. Социологический энциклопедический словарь. На русском, английском, немецком, французском и чешском языках. Редактор-координатор — академик РАН Г. В. Осипов. — М.: Издательская группа ИНФРА М — НОРМА, 1998. — 488 с.
14. Фролова Н.Г. Воспитание культуры толерантности: герменевтический аспект // «Письма в Emissia.Offline». : 2002